

## AVESTA ILOHIYOTI TIZIMINING MIFOLOGIK ASOSLARI (1-QISM)

**B. M. Norjigitov**

*Guliston Davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*

**A R T I C L E I N F O.**

**Kalit so'zlari:** Avesto, mifalogiya, mazdaizm, antropomorf, xaoma, Rigveda, Zaratushtra, behdin, politeizm, zurvanizm.

**Annotatsiya**

Ushbu maqolda zardushtiylik dini ilohlar panteoni o'ziga xos murakkab tizim, zardushtiylikkacha bo'lgan davrda Markaziy osiyo xalqlari ilohiy qarashlari haqida ma'lumot va tahlillar berilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl> © 2024 LWAB.

Avesta ilohiyoti tizimining shakllanish asoslari qadimgi xalqlarning zardushtiylikdan oldingi e'tiqodlari va dunyoqarashiga uzviy bo'gliqidir. Qadimda Markaziy Osiyo xalqlari turli dinlar, ma'budlar va devlarga ishonganlar. Bu e'tiqod asoslari keyinchalik Avesta ilohiyot tizimi tarkibiga kirib keldi. Shuning uchun zardushtiylik dini ilohlar panteoni o'ziga xos murakkab tizim sifatida shakllandit.

Avesta ilohiyoti va demonologiyasi diniy tasavvurlarning ibtidoiy bosqichlari bilan bog'liqidir. Insonga bo'ysunmas tabiat hodisalari asta-sekin odamlar ongida ma'lum barqaror timsollarga aylangan.

G'arb olimlarining ta'kidlashlaricha, "Arxeologik dalillar, Gerodot asarlari va boshqa manbalarga qaraganda, O'rta Osiyo dinlari sifatida vodiylarda ham, dashtlarda ham, asosan, turli xil shamanliklar namoyon bo'lgan. Diniy e'tiqodlar orasida politeizm( ko'pxudolilik) ustuvor bo'lib, har bir hudud yoki zamin o'z xudolari va son-sanoqsiz mahalliy ruh va ajinalariga ega bo'lgan".

Tarixchi olim Karamatov H. ushbu ma'lumotlarga quyidagicha munosabat bildiradi: "Bu bahodan ko'rinish turibdiki, mintaqamiz diniy e'tiqodlari haqida deyarli hech qanday tasavvur yo'q va bu bo'shliqlar asl va odil hamda xolis dalillar bilan to'ldirilmas ekan, o'zgalar xalqimizning moziy qatlamlaridagi tarixini bilib-bilmasdan soxtalashtirishi mumkin".<sup>1</sup>

Markaziy Osiyo va Eron tarixini o'rgangan tadqiqochilarining fikriga ko'ra, zardushtiylik bilan bir davrda ushbu hududlarda turli diniy yo'naliishlardan

mazdaim(mazdaparastlik), egizak ruhlarga sig'inish, Ahamoniylar sulolasidini, zurvanizm kabi e'tiqodlar tarqalgan.

Ayni damda tarixiy manbalarning aksariyatida mazdaizm bilan zardushtiylikni bir din sifatida talqin qilinadi. Shu bilan birga, ba'zi abdiyotlarda mazdaparastlikni mustaqil din bo'lganligi ta'kidlanadi.

Mazdaparastlik Ahamoniylar davridan ilgari va Avesta ta'siridan mustaqil ravishda, mustaqil yo'naliish sifatida G'arbiy Eronda mil. avv. IX-VIII asrlarda tarqalgan. Zardushtiylikdan farqli o'laroq,

<sup>1</sup> Karamatov H. O'zbekistonda moziy e'tiqodlar tarixi. – T.: JIDU, 2008. – B. 28.

mazdaizmda Ahura va devlarga ibodat qilish, soma(xaoma)ga o‘xhash psixotrop (asabga ta’sir qiluvchi) ichimliklarni qo‘llash, buning asosida bashorat amaliyotini amalga oshirish keng tarqalgan.<sup>2</sup>

Ilk o‘rta asrlarga tegishli tangalarining bir tomonida – ot ustida shoh, ikkinchi tomonida – hukmronlik ramzlarini ifoda etuvchi iloha tasvirlanganligi hukmronlikni ilohiyashtirilishining bir belgisi sifatida namoyon bo‘ladi. Qadimgi xalq va elatlarning ko‘pchiligi otni muqaddas hayvon sifatida e’zozlashgan. Bizning diyorlarimizda istiqomat qiluvchi massaget qabilalari Quyoshga e’tiqodi doirasida otni qurbanlik qilishgan. Bu haqida Gerodot quyidagi ta’rifni aytib o’tgan: “Xudolardan faqat Quyoshga e’tiqod qilishadi va unga otlarni qurbanlik keltirishadi. Bu qurbanlik ma’nosи shundan iboratki, ilohlardan eng teziga – hayvonlarning eng tezini baxshida etishadi.(Geredot, I, 216). Bu ma’lumotlarni yana bir qadimgi muarrix Strabon ham tasdiqlaydi: “Xudo, deb faqat yagona Quyoshni tan olishadi va unga qurbanlikka otlarni keltirishadi” (Strabon, XI, 8, 6).<sup>3</sup>

Markaziy Osiyo xalqlari qadimiylar e’tiqod ko‘rinishlaridan biri Quyoshga sig‘inish bo‘lgan. Tomarisning “Massagetlar xudosi Quyosh” (1, 24) so‘zleri bundan darak beradi. Herodot asarining boshqa joylarida ham skif, sak, massagetlar e’tiqodi haqida yozar ekan, ularning Quyoshga sig‘inishi, xudolarining haykalchalari yo‘qligi, ot, xo‘kiz, qo‘ylarni qurban qilishlari haqida habar beradi.

Dinlar tarixi mutaxassis Shaxristoni qadimiylar e’tiqodlarning zamonlar o‘tishi bilan o‘zgara borishi haqida shunday ozgan: “Vishtaspagacha shohlar sobylarning dinini tutgan. Ular yulduzlarga sajda qilgan, ayniqsa, ikkila fazoviy jism (Quyosh va Oy)ni ehtirom etgan. Zardusht ham avvaliga ularga sajda qilgan, biroq keyinchalik, bu borada ko‘plab chalkashliklar va ma’nosizliklar mavjudligiga amin bo‘lib va olovni xudoga yaqin deb, olov e’tiqodi (“amali”)ni yuksaltirdi, chunki olov yorug‘lik uning (xudoning) yorug‘ligidan paydo bo‘lib, tabiat kuchlaridan eng oliv va eng afzaliga mansubdir. Shuningdek, u suvgaga ham e’tiqod qilishni buyuradi, chunki suv – yaratuvchanlik asosi va yer farovonlikning omili”.<sup>4</sup>

Mazda (Ahura Mazda) dini yuzaga kelmasidan oldin Markaziy Osiyo devlarni ham turli hayotiy holatlarda himoyachi kuchlar, deb tushungan. Ertaklardagi “ijobiy” devlar shu qarashlarning qoldig‘idir. Yolg‘iz Ahura Mzdaga e’tiqod targ‘ib qilingan paytda devlar qora kuchlar sifatida la’natlangan. Devlarga ijobiy munosabat, ajdodlarimiz bilan qadimiylar ildizlari bog‘liq bo‘lgan hind xalqida hoziragacha saqlangan. Dev, Deva – o‘zagidan tuzilgan ismlar shundan dalolatdir. Demak, hind xalqi va bizning ajdodlarimiz o‘rtasida tarixiy bo‘linish Ahura Mazda dini shakllanishidan avvalroq ro‘y bergen. Shu sababli hind xalqida “Rigveda” kabi, nisbatan mustaqil epik tizim yuzaga kelgan bir paytda bizda Avesta shakllangan<sup>5</sup>.

Avesta mifologiyasining tarixiy asoslari tekshirilar ekan, bu tizimning hind mifologik tizimi bilan o‘xhash va farqli jihatlari ham olimlar e’tiboriga tushgan. Bu hol bejiz emas. Chindan ham Avesta mifologiyasining bir qator unsurlari qadimgi hindlarning “Rigveda” kitobida ayrim fonetik farqlar bilan bir xilda nomlangan. Lekin, bu o‘xshashliklarga nisbatan har ikki manbaning o‘zaro farqli jihatlari ko‘proq. Masalan, Avestaga xos Arta-“Haqiqat” Drouga – “Yolg‘on”, Spanta Maynyu – “Muqaddas fikr”, Ako-Mana – “Yovuz fikr” va boshqalar tizim darajasiga yetmagan. Yana bir muhim farqli jihat mavjudki, u ham bo‘lsa Avestada Ahura Mzdaning hamisha barhayot “yordamchilari” Amesha Spentalarning mavjudligini e’tirof etishdir. Avesta bilan “Rigveda” jamiyatlari dastlabki (mil. avv. III-II yilliklar o‘rtalarigacha) umumiylari, yoki o‘zaro yaqin bo‘lgan davrlar uzoqlashib borgan sari “Avestaning” ilohiyot va e’tiqod tizimlarida o‘zak tasavvurlaridagi farqlar chuqurasha borgan. Bu farqlar avvalo Zardusht (Zaratushtra) – behdin (ezgu din) xabarini keltirgan “payg‘ambar”, Ahura

<sup>2</sup> Mahmudova G., Arifanova S. Zardushtiylik falsafasi – T.: Noshir, 2014. – B. 20.

<sup>3</sup> Karamatov H. O‘zbekistonda moziy e’tiqodlar tarixi. – T.: JIDU, 2008. – B. 173.

<sup>4</sup> Karamatov H. O‘zbekistonda moziy e’tiqodlar tarixi. – T.: JIDU, 2008. – B. 191.

<sup>5</sup> Avesto: Yasht kitobi. /M. Is’hoqov tarjiması. – T.: Sharq, 2001. – B. 10

Mazda – ezgu borliqni yaratgan zot va bir qator uning o‘zi yaratgan ma’budlar (Tishtriya, Ardvi Sura), ko‘plab mifologik obrazlar tizimida namoyon bo‘ladi<sup>6</sup>.

Mazkur hududlarda qadimda yashagan xind-ariy qabilalari diniy ongida har xil xudolar boshchilik qilgan, turli xudolar panteoniga ega bo‘lgan bosh xudo Yama, Yima, Mitra, Mazda va boshqalar bo‘lgan. Ba’zi olimlarning fikricha, bunday guvohlik Avestaning o‘zida ham mavjud. Masalan, L.A.Lelekovning fikriga ko‘ra, Yasnaning 12-Xotida zardushtiylik dinining “Ahuraviy, zardushtiy disht” deb atalishi ushbu xot muallifi mazkur xudduda boshqa uncha samarali bo‘lman diniy ta’limotlar bo‘lganligiga ishora qiladi. Xudduda e’tiqodlar ko‘pligini barcha tashqi manbalar (Ossuriya, Tuadimti, Yunon), ayniqsa, keyingilari tasdiqlaydi.

Ayni shu ma’noda zardushtiylikning real tarixiy asoslari bor ekanligi masalasi avestashunoslikda ko‘p vaqtan buyon muhokama va munozaralarga sabab bo‘lib kelmoqda. XX asr o‘rtalaridan italyan olimi Paggiaro Zardushtning islohoti haqida fikr yuritib, u yaratgan diniy dunyoqarash tizimining tarixiyligiga shubhalarni olib tashlagan. Shu maqoladan bir oz avvalroq J.Dyumezil zardushtiylik islohotlari haqida, ularning tarixiyligini asoslashga qaratilgan maqola bilan chiqqan edi. Hind muallifi K.Chattopodxyayaning “Zardushtiylik islohotlari” nomli yana bir maqolasi zardushtiylikning tarixiylik asosda hal qilishga jiddiy da’vat bo‘lgan.

Zardusht islohotiga qadar Baqtriya va Marg‘iyonada olovga sig‘inish, uni muqaddas deb bilish va xaoma ichimligini muqaddaslashtirish kuchli bo‘lgan. Aynan bu alomatlar zardushtiylik dinida ham o‘zining munosib o‘rnini topgan. Bu esa, Zardusht tomonidan qabiladoshlari qadimdan topinib kelayotgan otashparastlik dinini qaytadan isloh qilganligidan guvohlik beradi. Otashparastlik dinidagi turli xil udumlar, qarashlarni va ayrim isrofgarchiliklarni o‘z davri nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda isloh qilib, ma’lum bir tizimga solib, davr talabi asosida o‘zining qarashlari va g‘oyalarni zardushtiylik dinida umumlashtirgan.

V.U.Abayevning fikricha, zardushtiylik islohot asosida paydo bo‘lgan din ekanligi shubhasiz. Bu islohotning mohiyatida ibridoib devlarga xos bo‘lmish tabiat hodisalarini ilohiylashtirishdan voz kechish g‘oyasi yotadi.

Aslida Zardusht dini qadimiy Markaziy Osiyo qabilalari, hind-eron xudolari obrazidan kelib chiqqan. Ikki xudo – Varuna va Mitra ilk xudolarning boshida turgan. Bu juftlikda Varuna jamiyat axloqiy tartiblarini buzgan kishilarni jazolovchi, Mitra esa insonlarga yaqin bo‘lib, u kishilar o‘rtasidagi ahd va do’stlik xudosi sifatida tasvirlanadi. Mazkur diniy tasavvurlar o‘rnida paydo bo‘lgan zardushtiylik Varuna obrazini Ahura Mazda (donishmand xudo) sifati bilan ulug‘laydi va uni butun koinot va jonli mavjudotni, ruhlarni, inson va jonivorlarni yaratgan yagona xudoga aylantirgan. Zardusht islohotlari diniy jihatdan ham, ijtimoiy jihatdan ham bitta ulug‘ va donishmand iloh Ahura Mazdaga sig‘inishga hamda Ahura Mazdaning dushmanlari deb e’lon qilingan. Ammo zardushtiylikning tarixiy ildizlari uzoq ibridoib o‘tmish bag‘rida yuzaga kela boshlagan va inson tafakkurining asotiriy(mifologik) bosqichlaridan ko‘plab unsurlarni o‘zining nazariy va amaliy tizimiga olib kirgan edi. Shu jumladan, zardushtiylik ilohiyot tizimida har bir ilohiy zotning vazifikasi va o‘rnini belgilashda ham qadimgi ajdodlar o‘z ijtimoiy hayot darajalaridan turib tafakkurlaridagi ilohiy obrazlar tizimini ijtimoiy modellar orqali tasavvur etishga harakat qilganlar. Shuning oqibatida, hayotning turli jabhalarini himoya qiluvchi, u yoki bu murakkab kundalik holatlarda odamlarga najot beruvchi ilohiy zotlar tizimining pog‘onalashgan qatori paydo bo‘lgan. Aslida ushbu iyerarxiya jamiyatning modeli asosiga qurilgan bo‘lsada, odamlar bu tizimga chuqur e’tiqod orqali yondoshganlar. Ularga o‘zlaridan xoli samoviy tushunchalar sifatida munosabatda bo‘lganlar. Eng muhimi, zardushtiylik dini o‘zining dastlabki bosqichlaridayoq mazkur hayoliy-ilohiyot tizimini odamlar taqdirining hal qiluvchi omili darajasiga ko‘targan. Bu o‘z navbatida inson va jamiyat, inson va tabiat munosabatlarini tartibga solishga xizmat qilgan.

<sup>6</sup> Ishmuratov M. “Avesto”da mifologik qatlam (tabiat kultlari asosida). Tarix fanlari nomzodi...dissertatsiyasi. 2002. – B 11.

Avestada bir turdagı dunyoqarashdan boshqasiga o'tish aks etgan. Xudolar odamsimon (antropomorf) qiyofasini yo'qtib, mavhum unsurlar, tabiatdan yuqori turuvchi va olamdagı tartibni nazorat qiluvchi mavhum ilohlar sifatida gavdalanadi. Genetizm egizak ruhlar to'g'risidagi hamda Ahura Mazda tomonidan Amesha Spentalarning yaratilishi to'g'risidagi afsonalarda saqlanib qolgan. Shu bilan birga, Hotlarda olamning yagona substansional asosi mavjudligi qayd etilgan. U yagona va mavhum (antropomorf bo'limgan) – xudo Ahura Mazdaga si'g'inish ko'rinishida ifodalanadi. Ilk zardushtiylikda olamning tuzilishi vertikal tarzda tasvirlangan, ya'ni Ahura Mazda – osmonda, Axriman esa – yer ostida yashaydi. Keyinchalik koinot tuzilishining tuxum(shar)simon modeli ustinlik qila boshlaydi(Yasna, 30.5-Hot: Yasht, 13.3), ya'ni yer tuxumning sarig'iga o'xshash, sharsimon deb tasavvur qilingan, uning tevaragini osmon tuxum po'chog'iga o'xshab o'rab turadi, ya'ni fazoda turli yo'nalishlarda harakat qilish mumkin. Yer atrofidagi fazoda yulduzlar, Oy va Quyosh joylashgan va bu fazo, Ahura Mazdaning timsoli bo'lgan qattiq jism (ma'dan)dan yasalgan gumbaz bilan cheklangan<sup>7</sup>.

Zardushtlik e'tiqod asoslarining murakkab jihat shundaki, unda yakka xudolik go'yasi asosiy o'rinni egallasada, aslida ko'p xudolik elementlarini saqlab holda dualistik bo'lib qoldi. Buning sababi Zardusht ta'limotining murakkabligi oqibatida, umumiyl nomi deva, dayva(osmon) bo'lgan turli xudolarga sig'ingan otashparastlar tomonidan u targ'ib qilgan dinning qiyinchilik bilan qabul qilinganligidir. Zardushtiylik dayv – devlarni inkor etib, ularni abstrakt yagona xudo g'oyasi bilan almashtirdi. Shu bilan birga, ezgulik bilan yonma-yon turgan yovuzlik sabablarini, ijobjiy hodisalar bilan bir qatorda sodir bo'layotgan salbiy holatlarni tushuntirish lozim edi. Bunday savollarga javoban, yomon misol tariqasida yovuz asoslar to'risidagi g'oya kelib chiqadi. Zardushtiylikka e'tiqod qililuvchi inson doimo ezgulikka xizmat qilishi lozim bo'lib qoldi. Aslida Zardusht Ahura Mazdani qudratli va barcha narsalardan yuqori turuvchi iloh sifatida ta'riflaydi. Uning qo'lidan yovuzlikni boshidanoq yo'q qilish keladi, biroq u bunday qilmaydi. U insonga yovuzlik va ezgulik orasida tanlash imkonini beradi. Chunki e'tiqod inson faqat o'z e'tiqodiga, xudosiga, ezgulik g'oyasiga oxirigacha vafodor bo'lsagina haqiqiydir.

Avesta mifologiyasida kosmogonik borliq haqidagi tasavvurlar dunyosi alohida diqqatga sazovor. Avesta mifologiyasi qatlamlari zardushtiylik ilohiyot tizimining Ahuralar (sharaflashga loyiq samoviyruhiy zotlar) va Yazatlar (ibodat bag'ishlashga sazovor zotlar)dan iborat guruhlarni qanday talqin etish va din amaliyotida hamda ijtimoiy-axloqiy munosabatlar doirasida ularning o'rni qandayligini belgilash bilan bog'liq.

Fravashilar va Yazatlardan yuqoriroq maqomda hamisha barhayot muaqaddas zotlar – Amesha Spentalar turadi. Ular Ahura Mazdaning yuqorida aytigan xislatlari, ya'ni vazifador emanatsiyalari: Vahu Mana, Arta Vahishta, Spenta Armaity, Xshatra Varya, Haurvatat, Ameretotlardan iborat. Bu zotlar har biri o'z sohasi bo'yicha homiydek tizim bo'lib, yaxlit ma'noda Ahura Mazdaning ezgu o'y, ilohiy tartib, munosib kuch-qudrat, muqaddas itoat, tanisog'lik, jismongan va ruhan hamisha barhayotlikni kafolatlashdek aniq vazifalarga taqsimlanganlar. Ushbu yordamchi emanatsion zotlar qiyofasi Avestada mavhum timsollar qatorini tashkil etsada, ularning tarixiy ildizlarida tabiat va jamiyatning ayrim sohalariga, hayotning real jabhalariaga homiylik belgilari saqlangan.

Zardushtiylik kosmogonikasi bo'yicha yer gardish shaklida, u suvda turadi, namlik, suv hamma narsaning asosi, yerni okean qurshagan, u huddi suvdagi taxtadek. Ana shu doktrinaga binoan zardushtiylar suvni hatto olovdan ham ortiqroq e'zozlaganlar. Ularning fikricha, yerni qurshagan olti modda (olti ma'bud) ning birinchisi suv (Apam-Napat), unda hayot kuchi bor, suvdagi hayot kuchini o'simlik sharbatlari bilan boyitib borish kerak<sup>8</sup>.

Zardushtiylikning ajdodlarimiz dunyoqarash tizimi sifatida o'ziga xos olamning yaralishi haqidagi konsepsiysi bo'lgan. Bunga ko'ra, olam ikki turga bo'linadi: ilohiy va moddiy olam. "Fravashi"

<sup>7</sup> Mahmudova G., Arifxanova S. Zardushtiylik falsafasi – T.: Noshir, 2014. – B. 40.

<sup>8</sup> A.Ashirov. "Avesto"dan meros marosimlar. – T.: Meros., 2001. – B. 4.

(ruhning muqobili yoki ko'chib yurishi) tufayli moddiy olamning so'ngida Odam (Qayumars) vujudga keladi. Bu haqda Zadusht shunday deydi: "Men ruhiy olamdan kelganman, bu moddiy olamdan emasman. Men yaralgan mayjudotman, azaldan mayjud emasman, men farishtalardanman, iblislardan emasman, men zolimlardan emas, yaxshilardanman."

Yuqorida o'rganilgan ma'lumotlar asosida quyidagicha xulosa qilish mumkinki, avvalo, Avesta mifologiyasining shakllanishi juda uzoq tarixiy jarayonda sodir bo'lganligi undagi mifologik abrazlar murakkab tizimni tashkil qiladi. Ibtidoiy davrdan boshlab insonlar tafakurida shakllangan asotirlar zardushtiylik diniy tizimiga kirib borgan. Shuningdek, tabiat bilan bog'liq ayrim kultlar bilan zardushtiylik ilohiyoti tizimidagi ma'bndlarning mujassamlashgangi ayrim muammolarning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Avesta mifologiyasining murakkab qatlamini tashkil topishida xalq og'zaki ijodining an'analarini, avloddan-avlodga o'tib kelgan dostonlarning qoldiqlarini, tarixiy voqealarning ta'sirini ko'rish mumkin.

Shunday qilib zardushtiylik diniy tizimining shakllanishi tizimli ravishda kechmagan. Shuning uchun ayrim ma'bndlarning sifatlari turli xil ko'rinishda keltirilgan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Karamatov H. O'zbekistonda moziy e'tiqodlar tarixi. – T.: JIDU, 2008.
2. Karimova D. Ilk zardushtiylik e'tiqodining shakllanishida Jarqo'ton ibodatxonasining tutgan o'rni//Imom Buxoriy saboqlari. № 3, 2017.
3. Mahmudova G. Avestaning falsafiy mohiyati. – T.: Noshir, 2015.
4. Safarboyev M. Avesta olamning vujudga kelishi va tuzilishi haqida.//Avesta va uning insoniyat taraqqiyotidagi o'rni. Toshkent-Urganch, 2001. Fan.
5. Zardushtiylik xrestomatiyasi. Mahmudova G, Is'hoqov M. va boshqalar. – T.: MUMTOZ SO'Z, 2017.
6. Avesta: Izbranniye gimni: Iz Videvdata/ Per. s avest. I.M. Steblin Kamenskogo. M., 1993.
7. Doroshenko E. A. Zaroastriytsi v Irane. – M: Nauka, 1982.
8. Tolstov S.P. Drevniy Xorezm. – M.: Izd. MGU., 1948